


# “BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL IQTISODIYOT” KIMYO HAFTALIGI

2024-yil 27-may 1-iyun



AMMOFOS  
MAXAM



UZKIMYO  
IMPEKS



New  
Uzbekistan  
University



KIMYO SANOATI  
YOSH MUTAXASSISLARI  
MILLIY FORUMI

**“Eng yaxshi innovatsion g‘oya” ko‘rik-tanlovi bo‘lib o‘tdi. Tanlovda ko‘rxonamiz vakillari ham o‘z g‘oyalarini himoya qilib, yuqori o‘rinlarni hamda pul mukofotlarini qo‘lga kiritishdi.**



**Rahbar va yoshlar uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.**

**“O‘zkimyosanoat AJ” boshqaruv raisining o‘rinbosari Akobir To‘xtayev**

**“Kimyo sanoati yosh mutaxassislari” milliy forumi ishtirokchilar bilan uchrashdi. Unda shuningdek, tarmoq korxonalari va bir qancha oliy ta‘lim muassasalari rahbarlari ham ishtirok etishmoqda. Samimiy va mazmunli ruhda o‘tayotgan uchrashuvda yoshlar o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javoblar olishmoqda, takliflarini bildirishmoqda.**



**“Barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot” kimyo haftaligi doirasida o‘tkazilayotgan “Kimyo sanoati yosh mutaxassislari” ilmiy-intellektual xakatonida sport musobaqalari ham o‘tkazildi. Musobaqada korxonamiz vakillari ham faol ishtirok etishdi.**



**Jurnalist, O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti o‘qituvchisi, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibasi Aisha Xushnazarova yoshlar uchun ijtimoiy tarmoqlarda mediamadaniyat, taqdimot qilish, o‘z fikr-mulohazalarini aniq va ravon yetkazib berish borasida ma’ruza qildi. Trening mashqlar va ishtirokchilar bilan o‘zaro suhbatlar orqali qiziqarli bo‘lib o‘tdi.**



**Forum doirasida yosh kimyogarlar uchun tashkil etilgan “Time managment-hayot sifatini oshirish” treningida “Maxam-Chirchiq” AJ xodimlari ham faol ishtirok etishmoqda.**



**“O‘zkiyosanoat” AJ tarmoq korxonalarida faoliyat yuritayotgan yosh kimyogar mutaxassislar ishtirokidagi milliy forum bolib o‘tdi. “Barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot” kimyo haftaligida korxonamiz vakillari ham faol ishtirok etishdi. “Maxam-Chirchiq” AJ Kimyogarlarning madaniyat saroyi xodimlari tomonidan konsert dasturi namoyish etildi.**

